

MUHAMMAD SHAYBONIYXON VA MOVAROUNNAHRDA SHAYBONIYLAR HOKIMIYATINING QAROR TOPISHI

Abdujalilova Madina Odiljon qizi

Termiz davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: madinaabdujalilova82@gmail.com

ANNOTATSIYA

XV asrda Dashti Qipchoqda Jo'ji avlodlari tomonidan bir nechta davlatlar tarkib topdi. Shular ichida Jo'jining beshinchi o'g'li bo'lgan Shaybon avlodlari ulusni tiklash uchun jiddiy kurash boshladilar. Shaybon ulusining o'z hududlarini O'rta Osiyo tomon kengaytirishi Shaybon naslining yirik namoyandasi Muhammad Shayboniyxon ibn Shohbaxtxon ibn Abulxayrxon nomi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: Abulxayrxon, Muhammad Shayboniyxon, Dashti Qipchoq, Movarounnahr, Samarqand, Saripul jangi, Ismoil Safaviy.

АННОТАЦИЯ

В XV веке на территории Дешт-и Кипчака потомками Джучи было образовано несколько государственных объединений. Среди них потомки пятого сына Джучи — Шибана — начали активную борьбу за восстановление своего улуса. Расширение владений Шибанидского улуса в направлении Средней Азии связано с деятельностью выдающегося представителя династии Шибанидов — Мухаммада Шайбани-хана, сына Шахбахт-хана и внука Абулхаир-хана.

Ключевые слова: Абулхаир-хан, Мухаммад Шайбани-хан, Дешт-и Кипчак, Мавераннахр, Самарканд, Сарипульская битва, Исмаил Сефевид.

ABSTRACT

In the fifteenth century, several states were established in the Dasht-i Qipchaq by the descendants of Jochi. Among them, the descendants of Shiban, the fifth son of Jochi, launched a determined struggle to restore their ulus. The expansion of the Shibanid ulus into Central Asia is closely associated with the activities of the prominent representative of the Shibanid dynasty, Muhammad Shaybani Khan, the son of Shah Bakht Khan and the grandson of Abulkhair Khan.

Keywords: Abulkhair Khan, Muhammad Shaybani Khan, Dasht-i Qipchaq, Mawarannahr, Samarkand, Battle of Sar-i Pul, Ismail Safavid.

KIRISH

Dashti Qipchoqning sharqiy qismida Jo'jining beshinchi o'g'li bo'lgan Shaybon asos solgan ulus vaqt o'tishi bilan zaiflashdi. Toju taxt uchun kurashda Shaybon naslidan bo'lgan Davlatshayx 1425-yilda vafot etdi. Siyosat maydoniga uning o'g'li Abulxayrxon chiqdi. Abulxayrxon 1428-yilda «O'zbek ulusi» deb nomlangan davlatga asos soldi¹. Abulxayrxon vafotidan so'ng davlat parchalanib ketdi.

XV asrning 80-yillarida Jo'ji naslidan yangi siyosiy kuch paydo bo'ldi. Bu turkiy o'zbek davlatchiligida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Shayboniyxon edi. Muhammad Shayboniyxonning tarixiy faoliyatini ko'zdan kechirar ekanmiz, unda siyosatchilarga xos ayyorlik, teran aql, ilm-fanga homiylik, zukkolik hamda harbiy mahorat mujassam edi. Shayboniyxon haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. O'z zamonasining buyuk olimi Zahiriddin Muhammad Bobur: «Shayboniyxonning ikkinchi nomi Shohboqxon», deb ta'kidlaydi.

Muhammad Shayboniyxon milodiy 1451-yilda Abulxayrxon saroyida dunyoga keldi. Unga islomiy an'anaga ko'ra Muhammad, turkiy an'anaga ko'ra esa Shayboniy deb ism qo'yilgan. Shayboniyxonning otasi Dashti Qipchoq xoni Shohbudoq Sulton, onasi esa Oqqo'zibegim edi.

Muhammad Shayboniyxon o'n to'rt yoshga to'lar-to'lmas otasidan ayrildi. Keyinchalik onasi Oqqo'zibegim ham olamdan o'tdi. Biroq bu paytda bobosi Abulxayrxon hayot bo'lgani sababli Shayboniyxon va uning ukasi Mahmud Sulton g'ariblikda qolmadilar. Ularni otasi Shohbudoq Sultonning sodiq xizmatkori Qorachabek o'z tarbiyasiga oldi. 1468-yilda Abulxayrxon ham vafot etgach, yetimlar Mazid Tarxon homiylikiga o'tdilar².

Muhammad Shayboniyxonning ilm-fanga bo'lgan qiziqishi yoshlik davridayoq shakllana boshlagan. U o'sha davrning nufuzli ilm maskanlaridan biri bo'lgan Buxoro madrasalarida tahsil oldi. Shayx Mansuridan fiqh, qiyos va ijmo masalalarini o'rgandi. Shuningdek, Muhammad Xitoydan Yassaviya tariqatining odob va an'alarini egalladi³.

Shayboniyxon ilm-fanni egallash bilan bir qatorda harbiy san'at sirlarini ham puxta o'zlashtirdi. U yollanma qo'shin tuzib, Movarounnahr va Xurosondagi temuriyzodalar hamda Mo'g'uliston hukmdorlariga ularning ichki raqiblariga qarshi kurashlarda harbiy yordam ko'rsatdi. Bu faoliyat orqali u o'zining harbiy tajribasi va sarkardalik mahoratini yanada mustahkamladi. Natijada bobosi Abulxayrxon asos solgan davlatni qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi.

¹ Jo'rayev U., Usmonov Q., Jo'rayeva G., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: 8-sinf darsligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – B. 5–6.

² Siyoyev S. Dashti Qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon qissasi. – Toshkent: Navro'z, 2021. – B. 7.

³ Siyoyev S. Dashti Qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon qissasi. – Toshkent: Navro'z, 2021. – B. 9.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'chmanchi o'zbeklar xoni sifatida hokimiyatni qo'lga olgan Shayboniyxon qisqa vaqt ichida tajribali davlat arbobi va mohir harbiy sarkarda ekanligini namoyon etdi. XV asrning 90-yillaridayoq u Movarounnahrning markaziy hududlariga harbiy yurishlarni boshladi. Bu davrga kelib temuriylar davlati o'zaro ichki nizolar va taxt uchun kurashlar oqibatida tobora zaiflashib, amalda mustaqil boshqariladigan kichik viloyatlarga bo'linib ketgan edi⁴. Bundan tashqari, Shayboniyxonning O'rta Osiyoga kirib kelishiga sabab bo'lgan omillarni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Dashti Qipchoqdagi siyosiy beqarorlik. Dashti Qipchoqda hokimiyatni saqlab qolish tobora murakkablashib, ichki nizolar hamda qabilalar o'rtasidagi raqobat Shayboniyxonni yangi hududlarni egallashga undadi.

2. Temuriylar davlatining zaiflashuvi. Temuriy hukmdorlar o'rtasidagi ichki kurashlar va siyosiy tarqoqlik Movarounnahrni egallash uchun qulay sharoit yaratdi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro va uning vorislari o'rtasidagi ziddiyatlar Shayboniyxonning harbiy yurishlarini osonlashtirdi.

3. Iqtisodiy manfaatlar. Movarounnahr qadimdan yuksak iqtisodiy va madaniy salohiyatga ega hudud bo'lib, uni egallash siyosiy hukmronlik bilan bir qatorda iqtisodiy foyda ham keltirar edi.

4. Diniy-siyosiy omillar. Shayboniyxon o'zini musulmon dunyosining nufuzli hukmdorlaridan biri sifatida namoyon etishga intildi. Movarounnahrni egallash orqali u islomiy siyosiy va madaniy ta'sirini yanada kuchaytirishni maqsad qildi.

5. Qabilalar manfaatlarini ta'minlash. Yangi hududlarni egallash orqali o'z qabilalarini yer-suv va boyliklar bilan ta'minlash, shu bilan birga ularning qo'llab-quvvatlashini mustahkamlashni maqsad qilgan.

Shu sabablar ta'sirida Muhammad Shayboniyxon 1497-yilda Movarounnahrda dastlabki harbiy yurishini amalga oshirdi. U katta qo'shin bilan Samarqand tomon yurish qildi. Biroq shaharni egallay olmadi va yo'l-yo'lakay uchragan ayrim shahar hamda qishloqlarni talon-toraj qilib, katta o'lja bilan Turkistonga qaytib ketdi.

Temuriy hukmdorlar tashqi xavf yuzaga kelgan paytlarda faqat vaqtinchalik va nomigagina birlasha olar edilar. O'zaro doimiy raqobatda bo'lgan temuriy amirlar mustahkam ittifoq tuza olmadilar. Har bir hukmdor o'z tasarrufidagi hududni saqlab qolishga intilib, boshqa viloyatlar xavfsizligi masalasiga yetarlicha e'tibor qaratmadi. Natijada bunday siyosiy tarqoqlik Muhammad Shayboniyxon uchun qulay sharoit yaratdi⁵.

⁴ Zamonov A. O'zbekiston tarixi. III qism. Temuriylar, Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri: darslik. – Toshkent: BAYOZ, 2023. – B. 372.

⁵ Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. II kitob (XIV asr o'rtalaridan – XIX asr o'rtalarigacha). – Toshkent: Donishmand yigisi, 2020. – B. 176.

1500-yilda Muhammad Shayboniyxon Samarqand shahrini deyarli jangsiz egallab, Shayboniylar davlatiga asos soldi. 1501-yilda esa Saripul qishlog'i yaqinida Zahiriddin Muhammad Bobur qo'shini ustidan g'alaba qozonib, Samarqandni uzil-kesil o'z tasarrufiga kiritdi⁶.

Shayboniyxon davlatga asos solgach, uning hududlarini kengaytirish siyosatini izchil davom ettirdi. 1503-yilda Toshkent, 1504-yilda Hisor, 1505-yilda o'n oylik qamaldan so'ng Urganch, 1506-yilda Balx, 1507-yilda esa Xurosonning markazi bo'lgan Hirotni egalladi⁷.

Shu tariqa Xurosonning asosiy shaharlarini bosib olgach, o'g'li va jiyanini ushbu hududda qoldirib, o'zi Amudaryodan o'tib Buxoro orqali Sirdaryoning yuqori oqimida hukmronlik qilayotgan Mahmudxonga qarshi yurish boshladi. Mahmudxon mag'lub etilgach, 1508-yilda Kaspiy dengizi bo'yidagi Jurjon viloyati ham Shayboniyxon tasarrufiga o'tdi⁸.

Muhammad Shayboniyxon 1509-yilda Dashti Qipchoqqa yurish qilib, qozoqlar egallab olgan Sig'noq, Yassi va Savron shaharlarini qaytarib oldi. Shu tariqa u Movarounnahr, Xuroson hamda Xorazm hududlarida o'z hokimiyatini yanada mustahkamlab, markazlashgan kuchli davlatni shakllantirdi.

Bu davrda Muhammad Shayboniyxonning eng asosiy siyosiy raqiblari Kobulda hukmronlik qilayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur hamda g'arbda hukmronlik qilayotgan Eron shohi Ismoil Safaviy edi. Shayboniyxon bilan Ismoil Safaviy o'rtasidagi qarama-qarshilik faqat hududiy manfaatlar bilan cheklanmagan bo'lib, u siyosiy va diniy tus ham olgan edi.

1510-yilning oktabr–noyabr oylarida Muhammad Shayboniyxon o'zining 40–50 ming kishilik qo'shinining asosiy qismini Movarounnahrda hukmronlik qilayotgan qirqdan ortiq sultonlar ixtiyoriga taqsimlab yubordi. O'zi esa 12–20 ming kishilik asosiy qo'shini bilan Hirotda qishlayotgan edi. Bu paytda uning o'g'li Muhammad Temur Sulton Qoshg'ar yurishida qatnashayotgan edi. Aynan shu holat Ismoil Safaviy uchun qulay harbiy vaziyatni yuzaga keltirdi⁹.

1510-yilda Marv yaqinida Muhammad Shayboniyxon va Ismoil Safaviy qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Ismoil Safaviy qo'llagan harbiy hiyla jang taqdirini Safaviylar foydasiga hal etdi. Qurshovda qolgan Shayboniyxon chekinishga majbur bo'ldi. Manbalarga ko'ra, u chorva uchun mo'ljallangan qo'rada oti qamalib qolishi oqibatida halok bo'lgan. O'z zamondoshlari tomonidan «Xalifat

⁶ Zamonov A. O'zbekiston tarixi. III qism. Temuriylar, Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri: darslik. – Toshkent: BAYOZ, 2023. – B. 375.

⁷ Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. II kitob (XIV asr o'rtalaridan – XIX asr o'rtalarigacha). – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. – B. 177.

⁸ Vamberi A. Buxoro va Movarounnahr tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1990. – B. 60–61.

⁹ Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent: BAYOZ, 2021. – B. 32–36.

ar-Rahmon» va «Imom az-zamon» deya ulugʻlangan Muhammad Shayboniyxon ushbu jangda magʻlubiyatga uchradi¹⁰.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Shayboniyxonning Oʻrta Osiyoga kirib kelishi mintqa tarixida muhim burilish yasadi. U Temuriylar davrida siyosiy jihatdan tarqoqlashib ketgan Movarounnahr, Xuroson va Xorazm hududlarining katta qismini oʻz hokimiyati ostida birlashtirishga muvaffaq boʻldi. Natijada Shayboniylar davlati tashkil topib, Markaziy Osiyoda yangi siyosiy bosqich boshlandi.

Muhammad Shayboniyxon nafaqat mohir sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan hamda madaniyat homiysi sifatida ham tarixda munosib oʻrin egalladi. Uning hukmronligi davrida qoʻshni davlatlar, jumladan, Usmoniylar davlati va boshqa mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar rivojlantirildi. Bu esa davlatning xalqaro maydondagi siyosiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi.

Shuningdek, Shayboniyxonning faoliyati Movarounnahrda temuriylar hukmronligining yakunlanishi va Shayboniylar sulolasi hukmronligining qaror topishiga zamin yaratdi. Shu bois Muhammad Shayboniyxon oʻzbek davlatchiligi tarixida markazlashgan davlat barpo etgan, mamlakatning siyosiy barqarorligini taʼminlash yoʻlida muhim xizmat qilgan tarixiy shaxslardan biri sifatida eʼtirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eshov B. J., Odilov A. A. *Oʻzbekiston tarixi. II kitob (XIV asr oʻrtalaridan – XIX asr oʻrtalarigacha)*. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020.
2. Joʻrayev U., Usmonov Q., Joʻrayeva G., Norqulov N. *Oʻzbekiston tarixi: 8-sinf darsligi*. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019.
3. Siyoyev S. *Dashti Qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon qissasi*. – Toshkent: Navroʻz, 2021.
4. Vamberi A. *Buxoro va Movarounnahr tarixi*. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 1990.
5. Zamonov A. *Buxoro xonligi tarixi*. – Toshkent: BAYOZ, 2021.
6. Zamonov A. *Oʻzbekiston tarixi. III qism. Temuriylar, Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri: darslik*. – Toshkent: BAYOZ, 2023.

¹⁰ Eshov B. J., Odilov A. A. *Oʻzbekiston tarixi. II kitob (XIV asr oʻrtalaridan – XIX asr oʻrtalarigacha)*. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. – B. 178.